




International Scientific and Practical Conference on the
topic: " Sustainable Architecture – Challenges and
Achievement of the Present and Future"



ZAMONAVIY INTERYERDA KLASSIK USLUB

Muxamadiyev E.M.

Interyer va landshaft kafedrasi professori, SamDAQU

Xasanova X.X.

Interyer va landshaft kafedrasi katta o'qituvchisi, SamDAQU

Annotatsiya: Ushbu maqolada dizayn olamidagi tendentsiyalarning rivojlanishi va dizayn stereotiplarining tez-tez o'zgarib turishiga qaramasdan, zamonaviy klassika uslubidagi interyerlar ning tashkil etilganligi va beqiyos o'rni haqida so'z boradi. Klassika aslida bizning hayotimizga yorqinlik, ko'zga tashlanuvchanlik va dekorativ elementlarning xilma-xilligi orqali emas, balki makonni shakllantirishda nafosat va mo'tadillik xususiyatlarini o'ziga singdirganligi haqida xulosalar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье, несмотря на развитие тенденций в мире дизайна и частую смену дизайнерских стереотипов, говорится об организации и ни с чем не сравнимом месте интерьеров в стиле современная классика. Делаются выводы о том, что классика на самом деле вобрала в себя черты изящества идержанности в формировании пространства, а не за счет яркости, бросаемости и разнообразия декоративных элементов.

Annotation: This article, despite the development of trends in the design world and the frequent change of design stereotypes, talks about the organization and incomparable place of modern classic interiors. Conclusions are drawn that the classics actually absorbed the features of grace and restraint in the formation of space, and not due to the brightness, throwability and variety of decorative elements.

Kalit so'zlar: Klassika, neoklassik, modern, faktura, tekstura, koloristik.



Ключевые слова: Классика, неоклассика, модерн, фактура, фактура, колористика.

Key words: Classic, neoclassic, modern, texture, texture, coloring.

Dizayn olamidagi tendentsiyalarning rivojlanishi va dizayn stereotiplarining tez-tez o'zgarib turishiga qaramasdan, zamonaviy klassika uslubidagi interyerlar o'z ahmiyatini yo'qotmay kelayapti. Klassika uslubining asl ildizlari Antk, Italiya renisansi va Fransuz klassik uslubi yo'naliishlariga borib taqalsada, unining bugungi kungacha bo'lgan taraqqiyoti jamiyatning turli davrlarlardagi taraqqiyoti, estetik qarashlari bilan turlicha ko'rinishda namoyon bo'lib kelmoqda. Chunki bu yondashuvga bo'lgan talab uning bitmas-tuganmas nafosati va funksionalligi bilan bog'liq. Binolarni loyihalashda har doim turar-joy yoki noturar joy bo'lmasin, qulaylik, qat'iylilik va o'ziga xoslik qadrlanib kelgan.

Klassika makonni shakllantirish uslubi sifatida 18- asrning oxirarida kirib keldi. O'sha paytlarda Frantsiya, Angliya va Germaniyalik me'morlar shu yo'naliish ustida faoliyat olib borganlar. Ular ushbu

yonalishga nihoyatda takomilashgan nafislik kiritdilar. Ammo shu bilan birga usha davrda neoklassitsizmga qarama-qarshi modernistik tendentsiya yuzaga kelib uning salohiyati ustunlik qilaboshladi.



Modern uzida o'ta "kibrlik" ('ekstrovgantlik) va nafosatparastlik kabi xislatlarni ozida mujassam etadi. Unga haddan tashqari dekorativlik va interyerga joziba qo'shadigan ko'plab ishlamaydigan, nofunksional ichki elementlarning mavjudligi bilan xarakterlidir. Klassika aslida bizning hayotimizga yorqinlik, ko'zga tashlanuvchanlik va dekorativ elementlarning xilma-xilligi orqali emas, balki makonni shakllantirishda nafosat va mo'tadillik xususiyatlarini o'ziga singdirgani uchun kirib kelgan edi. Neoklassik mafkura nafis cheklovga asoslanadi, bu erda asosiy atribut garmoniya bo'lib, xiralashtirilgan, yani jilovlangan tonlardagi ranglarning uyg'unligi, sofligi va tabiiyligiga asoslangan bo'ladi. Biz bu yerda alohida mebel to'plamlariga e'tiborni qaratishimiz mumkin, ammo bu ehtiyojkorlik bilan amalga oshirilishi lozim. Bunday tanlovning asosiy maqsadi ob'ektni umumiyo ko'rinishdan chetlatish bo'lmay balki, ranglaralaralashmasini uyg'unlashtirishdir.



Uy ichkarisida zamonaviy klassika. Klassik interyer bir nechta xususiyatlar bilan xaraktelanishi mumkin:

-Devor va jihozlarga neytral rangli ottenkalari (ko'lankalari)berish tufayli kenglik va yorug'likka urg'u berish. Ularanig va shakl jihatdan o'zaro mutanosiblikda yani ortiqcha tonal farqlanmacligi, chiziqlar o'zaro gamonik kelishuvda bo'lishligi lozim.

- Mebel, devorlarni bezashda, bezaklar va dekorativ atributlardan minimal foydalanish.
- O'tish chiziqlari va siluetlarning tekisligi, silliqligi(oxistalik) va soddaligi.
- Xonalarni bezashda ham tabiiy, ham sun'iy materiallardan foydalanish.Klassik yichimda qurilish

materiallaridan foydalanish xonalarni jozibali bo'lishida nihoyatda ahamiyatlidir. Materiallarning fakturasi, teksturasi, rangilarini moslashlanishi alohida o'rinn tutadi.

-Tanlangan elementjarga urg'u berilmaganligi, ularning ixchamligi va sokin ottenkalari (ko'lankalari) butun atmosfera bilan moslanib ketishi. Xususiy uyda kvartiralar va binolarni loyihalashda zamonaviy klassik nima ekanligini tushunish uchun mutanosiblik(proportsiyonallik) printsipidan kelib chiqish kerak. Mebel va dekor kompozitsiyalarining kontsentratsiyasi markazi sifatida, markaziy qismni ovqatlanish stoli, katta divan yoki eski tortma ko'rinishida olinadi.

Xonaning maydoniga qarab, garnitura va mebelning o'lchami tanlanadi. Chunki barcha qismladagi unsurlar ergonomik jihatdan hisoblangan bo'lishi kerak.

Interyerda zamonaviy klassik yecimda rejaviy va dekorativ yechim muhim rol o'ynaydi. Mebelni joylashtirishning asosiy printsipi - simmetriyaga rioya qilish maqsadga muvofiqdir. Bunga kichik kitob javoni, haykalchalar uchun javonlar, ship va devordagi yorug'lik diodlari, choy aksessuarlari bilan stullar yoki pufik kursichalar kabi juftlashtirilgan tuzilmalarni o'rnatish orqali erishiladi.

Pol qoplamasi qimmatbaho yog'ochdan tashkillashtiriladi. Buni amalga oshirish uchun parket taxtachalari yoki badiiy massiv taxtalarni tanlanadi.

Zamonaviy klassik interyer dizaynida mebel. - Aniq va ko'rindigan chiziqlar egri burum tomoniga oxista va silliq o'tadi. Ushbu yondashuv fazoviy atmosferani to'diradi, lekin diqqatni jaljalb qilmaydi. Mebellar o'lchamlari katta-kichikligi,turi,rangi moslanadi.

Zamonaviy klassik interyerdag'i ranglar gammasi. Koloristik palitra ko'zga yaqqol tashllanmaydigan, oqilona formatdag'i tabiiy ranglarga asoslangan.Biz atmosferani murakkab rangli intensivlashgan, aktsentlashgan yorqin tonlarda aralashma hosil qilishimiz mumkin. Bular safiga marjon rang (koralloviy), sharof rangi(vinniy) kiradi. Urg'u rasmlar, lampalar, dekorativ yostiqlar kabi aksessuarlarda amalga oshiriladi.

Asosiy ranglarga e'tiborni qaratish uchun qaysi ranglarni aralashtirish mumkinligini ko'rib chiqamiz: yengil, boy firuza rangi, kulrang, ko'kyalpiz, krem, marjon rangi, fil suyagi, bordo(jigarrang), kreml, binafsha rang, jigarrang, oltin rang, quyuq kulrang, bronza.

Kvartira xonalarining barchasida uslub bir xilda bulishi, har jihatdan o'z sifatlari bilan umumiyo bo'lishi yani klassik uslubida bo'lishi lozim. Xonalarning har biri o'z funksional vazifalariga ko'ra alohida xususiy yodashuv va yechim talab qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Ioxannes Itten.Iskustva sveta.- Moskva;L.Monaxov, 2001.-98.
2. Bloxina I.V.Vsemirnaya istoriya apxitekturi i stiley.-Moskva:AST, 2014.-400.
3. Salimov A.M. Arxitektura yodgorliklaridan zamonaviy maqsadda foydalanish.-Toshkent.: Fan, 2017.-125.
4. Sultanova D.N., Xasanova X.B., Tarixiy muzeylar interyerida tasviriy va badiiy vositalarning qo'llanilishi, Me'morchilik va qurilish muammolari, 3 son. SamDAQU. -Sam., 2022.-B-66-69.